

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**ORIENTAL  
UNIVERSITETI**

**XOLMONOVA NODIRA SHUXRAT QIZI**

**TARIXSHUNOSLIK**  
**(qadimgi davrdan o‘rta asrlargacha)**

**Uslubiy qo‘llanma**

**TOSHKENT 2026**

**UO‘K 94(3)**  
**KBK 63.3(0)3**  
**X 74**

**Xolmonova N.Sh. Tarixshunoslik (qadimgi davrdan o‘rta asrlargacha). Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Oriental universiteti, 2026. – 72 b.**

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma “Tarix” ta‘lim yo‘nalishining ikkinchi va to‘rtinchi bosqichlarida o‘tiladigan “Tarixshunoslik” fanining o‘quv mashg‘uloti uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan mavzulari doirasida mustaqil ta‘lim ishlarini to‘g‘ri tashkil etish, amaliy jihatdan fanni anglashga yordam berish uchun mo‘ljallangan.

### **Taqrizchilar:**

**Z.A. Ilxomov** – O‘zbekiston Milliy Pedagogika universiteti “Tarix” kafedrasida professori, tarix fanlari nomzodi;

**I. Xo‘jaxonov** – Oriental universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

Ushbu uslubiy qo‘llanma Oriental universiteti Kengashining 2026-yil “\_\_\_”- yanvardagi “\_\_\_”- sonli bayonnomasi va Oriental universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida yig‘ilishining 2026-yil “7”- yanvardagi “10”- son bayonnomasi bilan nashrga ruxsat etilgan.

© Xolmonova Nodira Shuxrat qizi, 2026.

© Oriental universiteti, 2026.

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH</b> .....	4
I BOB	Tarixshunoslik faniga kirish.....	6
1-§	Tarixshunoslik fanining mazmun va mohiyati .....	6
	<i>Mustaqil ta'lim uchun topshiriq namunalari</i> .....	14
2-§	Qadimgi davrdan o'rta asrlargacha tarixshunoslik.....	15
	<i>Mustaqil ta'lim uchun topshiriq namunalari</i> .....	26
3-§	Ilk o'rta asrlarda tarixiy bilimlarning rivojlanishi .....	30
	<i>Mustaqil ta'lim uchun topshiriq namunalari</i> .....	47
4-§	Rivojlangan va so'nggi o'rta asrlarda tarixiy bilimlarning rivojlanishi.....	48
	<i>Mustaqil ta'lim uchun topshiriq namunalari</i> .....	66
	<b>XULOSA</b> .....	68
	Tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar.....	70

## KIRISH

«Yangilanayotgan O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash» g‘oyasi ostida bugungi kunda kechayotgan o‘zgarishlar ta‘lim tizimini ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. O‘zbekistonda Oliy ta‘limni rivojlantirishning 2030-yilgacha bo‘lgan konsepsiyasining qabul qilinishi, qo‘shma dasturlar orqali nufuzli oliy o‘quv yurtlari bilan o‘zaro hamkorliklarning yo‘lga qo‘yilishi, O‘zbekistonda dunyoning yetakchi oliy o‘quv yurtlari filiallarining ochilishi, xalqaro reyting va indekslarda respublika oliy ta‘lim tizimining nufuzini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar buning misolidir. Malakali kadrlarga bo‘lgan talabdan kelib chiqib, bugungi kunda ta‘lim to‘g‘risidagi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Unda mamlakatimizda mustaqillik yillari ta‘lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar va undagi ayrim kamchilik va nuqsonlarni tanqidiy tahlil etilgan holda bu tizimda o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Tarixshunoslik fani tarix fanlarining barcha sohalari bilan bog‘liq bo‘lib, tarixiy bilimlarning rivojlanishida dastlabki tarixshunoslik manbalari, jumladan, doston, rivoyat, afsonalar, ilmiy-tarixiy adabiyotlar, tadqiqotlar, yozishmalar, qo‘lyozmalar, esdaliklar katta ahamiyatga ega. Tarixshunoslik fanining hozirgi bosqichda tarixshunoslik tarixini o‘rganish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular asosan mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar bilan oldindan belgilab qo‘yilgan. Ushbu o‘zgarishlar tarixchilardan O‘zbekiston tarixiga yangi nazariy va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishda, kontseptual yondashuvni aniqlashda, mamlakatimizda falsafiy va tarixiy fikr tajribasini chuqurroq o‘rganishda katta sa‘y-harakatlarni talab qildi. Tarixshunoslik fanining asosiy maqsadi talabalarda tarixiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, tarix fanining to‘plagan tajribasini to‘plash, baholash, sharhlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Tarixshunoslik fani tarix fanining shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlarini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. O‘quv materialini o‘rganish mahalliy va xorijiy tarixchilarining tarixiy tushunchalari bilan tanishish, ularning tarixiy asarlarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarning umume‘tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo‘yicha innovatsiyalarning o‘quv jarayoniga joriy etilganligi bilan ilgari o‘quv adabiyotlaridan farq qiladi. Mavzular shu yo‘nalishda tasdiqlangan «Tarixshunoslik va manbashunoslik» fanining namunaviy dasturi asosida yoritilgan.

Mavzu so‘nggida texnologik usullar, nazorat savollari va topshiriqlari, taqdimot yaratish uchun ko‘rsatmalar berilgan. Umuman, ushbu o‘quv qo‘llanma nafaqat oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilar va talabalariga, balki tarixshunoslikka qiziquvchi va uni o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganlar hamda ilmiy-tadqiqot olib borish usullari bilan tanishishni xohlovchilar uchun ham mo‘ljallangan. Mazkur uslubiy qo‘llanma talabalarning “Tarixshunoslik” fanidan mustaqil ishlarini samarali tashkil etish, ularning ilmiy-nazariy fikrlash, tarixiy tahlil, xulosa chiqarish hamda zamonaviy taraqqiyot jarayonlari bilan bog‘liq holda baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, mazkur uslubiy qo‘llanmada mustaqil ta‘limni tayyorlash uchun bitta mavzu namuna sifatida ko‘rsatilib, qolgan mavzular uchun namunaviy ma‘ruza matni ilova qilingan. Foydalanuvchilar tarixshunoslik fanidan mustaqil ta‘limni tayyorlash jarayonida qo‘shimcha ma‘lumotlar o‘rnida mazkur matnlardan foydalanishi mumkin bo‘ladi.

Aytish joizki, tarixshunoslik fanini o‘zlashtirish natijasida ta‘lim oluvchilarda tarixiy bilimlarning mohiyati, shakllari va vazifalari haqidagi bilimlar shakllanadi, tarixiy jarayoni rivojlanishining zamonaviy kontsepsiyalari o‘rganiladi va tahlil qilinadi, tarixfanining shakllanishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlari hamda milliy xususiyatlari bo‘yicha ko‘nikmalar takomillashadi.

**NODIRA XOLMONOVA**

**TARIXSHUNOSLIK**  
**(qadimgi davrdan o'rtasrlargacha)**

*uslubiy qo'llanma*